XITOY TILINI O‘QITISHDA TALAFFUZ KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI (《汉语国际教育用词语声调组合及轻重音格式实用手册》 TAHLILI ASOSIDA)

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-24-54-55

Raxmatullayeva Dilshada Maratovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
dilshadarakhmatullaeva@gmail.com

SCIENTIFIC AND PRACTICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING PRONUNCIATION SKILLS IN CHINESE LANGUAGE TEACHING (BASED ON AN ANALYSIS OF 《汉语国际教育用词语声调组合及轻重音格式实用手册》)

Raxmatullayeva Dilshada Maratovna
Tashkent State University of Oriental Studies, Researcher
dilshadarakhmatullaeva@gmail.com

Abstract. *This thesis analyzes the role of combinations of tones and stress patterns in developing students’ pronunciation skills in teaching Chinese as a foreign language. The study takes “汉语国际教育用词语声调组合及轻重音格式实用手册” (A Practical Handbook of Tone Combinations and Stress Patterns of Words for International Chinese Language Education) as its primary source. The article examines the handbook’s theoretical and methodological foundations, its classification system (MZ, ZQ, MQZ), and its pedagogical significance for Chinese language pronunciation instruction.*

Keywords: *Chinese language teaching methodology, tone, stress, pronunciation skills, national standard, pedagogical technology.*

Xitoy tilini o‘rganishda talaffuz eng qiyin bosqichlardan biri hisoblanadi. Talabalar ko‘pincha alohida bo‘g‘inlarning ohanglarini to‘g‘ri talaffuz qilsalar-da, ularni so‘z birikmalari va gaplar ichida tabiiy, ravon va to‘g‘ri urg‘u bilan aytishda xatolarga yo‘l qo‘yadilar. An’anaviy darsliklar asosan leksik ma’no va grammatikaga e’tibor qaratib, so‘zlarning ohang birikmalari va urg‘u (yengil/og‘ir) qoliplariga yetarlicha e’tibor bermaydi. Shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida yaratilgan 《汉语国际教育用词语声调组合及轻重音格式实用手册》 (Amaliy qo‘llanma) xitoy tili o‘qitish metodikasida muhim yangilik bo‘lib xizmat qiladi.

Xitoy adabiy tilidagi ikki va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning tonlar ketma-ketligi hamda yengil va kuchli urg‘u shakllarini o‘rganish va o‘zlashtirish xitoy tilining fonetikasi va intonatsiyasini egallashning asosiy shartlaridan biridir. Xitoy tilida so‘z urg‘usining namoyon bo‘lishi, asosan, urg‘u tushadigan bo‘g‘inning nisbatan uzoqroq davomiylikka ega bo‘lishi hamda ton konturining to‘liq saqlanishida namoyon bo‘ladi. [Raxmatullayeva 2025:316] Xitoy adabiy tilidagi so‘zlarning yengil va kuchli urg‘u shakllari ham muayyan qonuniyatlarga ega.《实用手册》da jami 11 092 ta so‘z keltirilgan bo‘lib, shundan 1 673 tasi bir bo‘g‘inli, 8 382 tasi ikki bo‘g‘inli, 588 tasi uch bo‘g‘inli va 449 tasi to‘rt bo‘g‘inli so‘zlarni tashkil etadi. Qo‘llanmada ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar kuchli, o‘rta va kuchsiz urg‘u darajalariga ko‘ra belgilanib, tasniflangan. Shuningdek, barcha ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar tonlar kombinatsiyasining turli ko‘rinishlariga muvofiq alohida guruhlarga ajratilgan.[刘 2019:1] Mazkur qo‘llanma xitoy tilini xalqaro miqyosda o‘qitishda fonetik ta’lim jarayonini takomillashtirishga amaliy jihatdan yordam berish, shuningdek, o‘rganuvchilarga xitoy tiliga xos tabiiy fonetika va intonatsiyani yanada samarali o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot maqsadi ushbu amaliy qo’llanmaning ilmiy-metodologik salohiyatini tahlil qilish va undan xitoy tili darslarida talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishda qanday samarali foydalanish mumkinligini asoslab berish.

Tadqiqot kitobning 《等级划分》 (Darajalarga bo‘lish) milliy standarti leksikasini ilmiy jihatdan baholash, ohang va urg‘u tasniflash tizimini (MZ, ZQ, MQZ, ZQQ) pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish, ushbu tasnifdan o‘zbek auditoriyasida xitoy tili o‘qitishda foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Tadqiqotda tahliliy-komparativ metod, pedagogik kuzatish va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida 《汉语国际教育用词语声调组合及轻重音格式实用手册》 [刘 2019:245] olindi. Kitobdagi jadvallar tizimli o‘rganilib, ulardagi ma’lumotlar pedagogik maqsadlarga qanday xizmat qilishi mumkinligi tahlil qilindi. Tahlillar quyidagi muhim natijalarni ko‘rsatdi:

1. Tizimli yondashuv: Kitobda so‘zlarni shunchaki faqat alifbo tartibida emas, balki daraja (1, 2, 3), bo‘g‘inlar soni, ohang birikmasi va urg‘u shakli bo‘yicha guruhlaydi. Bu o‘qituvchiga “osondan qiyinga” tamoyili asosida dars rejasini tuzish imkonini beradi.

2. Statistik asos: Kitobdagi ma’lumotlarga ko‘ra, ikki bo‘g‘inli so‘zlarning 90.2% foizi MZ (O‘rta-Og‘ir) shaklida (masalan, 学校, 帮助), faqat 9.8% foizi ZQ (Og‘ir-Yengil) shaklida (masalan, 妈妈, 桌子) talaffuz qilinadi. Bu raqamlar o‘qituvchiga qaysi qolipga ko‘proq e’tibor berish kerakligini ko‘rsatadi.

3. Amaliy qulaylik: Kitobdagi “//” (ajraluvchi fe’llar uchun) maxsus belgi o‘quvchilarning talaffuz xatolarini oldini olish bilan birga so’zning qanday qo’llanilishini ham ko’rsatib berishga qaratilgan.

4. Pedagogik ahamiyat: MZ, ZQ, MQZ, MZQ, ZQQ, MQMZ, MMQZ, MQZQ kabi qoliplarni yodlash orqali talaba xitoy tilining tabiiy ritmini (语感) tezroq o‘zlashtiradi. Bu esa nutqning ravonligini ta’minlaydi.

《汉语国际教育用词语声调组合及轻重音格式实用手册》 xitoy tili o‘qitish metodikasida talaffuzni avtomatlashtirish uchun juda muhim vositadir. U nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikma berishga qaratilgan. O‘qituvchilar darslarda ushbu kitobdagi MZ, MQZ va boshqa shaklardagi so‘zlarni audio-materiallar bilan birgalikda ko‘proq mashq qildirishlari kerak. Kelajakda ushbu kitob asosida fonerik mashqlar to’plami, mobil ilova yoki interaktiv o‘quv platformasini yaratish ta’lim samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. 刘英林, 梁彦民, 李方延, 刘广徽. 汉语国际教育用词语声调组合及轻重音格式实用手册. 北京: 北京语言大学出版社, 2019.
2. Raxmatullayeva D. Issues of Acquisition of Chinese “Shengmu” and “Yunmu” Sounds and Phonetic Interference: A Case Study of Uzbek Students // ACTA NUUz. — 2025. — Vol. 1, No. 1.8. — P. 316–319. doi:10.69617/nuuz.v1i1.8.8644.
3. Nazarova S. et al. CHALLENGES AND PROSPECTS FOR IMPLEMENTING COGNITIVE-DISCOURSIVE AND INTERCULTURAL APPROACHES IN TEACHING CHINESE (ON THE EXAMPLE OF THE TSUOS CURRICULUM) //Foreign Languages in Uzbekistan. – 2026. – С. 186—201-186—201.
4. Валиева Н. А. ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ КОНЦЕПЦИИ «СЧАСТЬЕ» В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ (НА МАТЕРИАЛЕ “中华五福古祥图典”) //ББК 81.711+ 71.0 (5Кит) я43. – 2021.
5. https://ric.blcu.edu.cn/info/1042/2220.htm